Ilmiy rahbar, Qarshi davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi.

ORCID: 0009-0005-0823-0024

Email: shaxzodganiyev46@gmail.com

Davronova Farangiz

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy menejmentda raqamli transformatsiyaning ahamiyati, ushbu yo'nalishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularni O'zbekiston sharoitida joriy etish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning davlat boshqaruvi va ijtimoiy soha tizimlarining samaradorligini oshirishga ta'siri ilg'or xorijiy amaliyotlar misolida o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekistonda ijtimoiy menejment sohalarida raqamli transformatsiyani rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar va muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy boshqaruv jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, ijtimoiy menejment, raqamli iqtisodiyot, internet infratuzilmasi, elektron davlat xizmatlari, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi, raqamli savodxonlik, innovatsion texnologiyalar, "Raqamli O'zbekiston – 2030", elektron tibbiyot, davlat xizmatlarini avtomatlashtirish.

Abstract: This article explores the importance of digital transformation in social management, analyzing international best practices and the prospects of implementing them in Uzbekistan. The study examines how digital technologies contribute to improving the efficiency of public administration and social sector systems through the lens of advanced foreign experiences. Furthermore, the paper assesses the opportunities and challenges associated with the development of digital transformation in Uzbekistan's social management sectors and offers practical recommendations for addressing these issues. The findings provide scientific and practical value for enhancing social governance processes through modern technologies.

Key words: digital transformation, social management, digital economy, internet infrastructure, electronic government services, cybersecurity, artificial intelligence, blockchain technology, digital literacy, innovative technologies, "Digital Uzbekistan – 2030", e-health, automation of public services.

Аннотация: В статье рассматривается значение цифровой трансформации в социальном менеджменте, анализируется международный опыт в данной сфере и перспективы его внедрения в условиях Узбекистана. В исследовании изучается влияние цифровых технологий на повышение эффективности государственного управления и систем социальной сферы на примере передовой зарубежной практики. Также проведён анализ существующих возможностей и проблем развития цифровой трансформации в сферах социального менеджмента Узбекистана, предложены практические рекомендации по их устранению. Результаты исследования обладают научно-практической значимостью в сфере совершенствования процессов социального управления на основе современных технологий.

Ключевые слова: цифровая трансформация, социальный менеджмент, цифровая экономика, интернет-инфраструктура, электронные государственные услуги, кибербезопасность, искусственный интеллект, технологии блокчейн, цифровая грамотность, инновационные технологии, "Цифровой Узбекистан – 2030", электронное здравоохранение, автоматизация государственных услуг.

İQTİSODİYOT EKONOMİKA ESONOMU

Statistik tahlil – O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir mavjud ma’lumotlar va ijtimoiy menejment samaradorligiga oid statistik ko‘rsatkichlar o‘rganildi.



Ekspert baholash usuli – sohaga oid ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda mutaxassislar fikrlari asosida tahlillar olib borildi.

Ushbu metodologik asoslar orqali tadqiqot yakunida ijtimoiy menejmentda raqamli transformatsiyani rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy menejmentni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon Prezident farmonlari, qarorlari va ilmiy izlanishlar bilan mustahkamlangan bo'lib, unda raqamli transformatsiyaning ahamiyati, istiqbollari va mavjud muammolari chuqur yoritilgan.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 22-sentabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni joriy etishning dolzarbligi, mavjud muammolar va kelajakdagi rejalar tahlil qilingan. Davlat rahbari raqamlashtirishni iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholab, bu borada jadal islohotlarni amalga oshirish zarurligini ta'kidlagan.

Ushbu yo'nalishda qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri – “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi asosidagi PF-6079-sonli Farmon bo'lib, unda davlat xizmatlarini raqamlashtirish, IT sohasini rivojlantirish va elektron platformalarni joriy etish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilanadi. Farmonning asosiy maqsadi – iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali O'zbekistonni texnologik jihatdan ilg'or davlatlar qatoriga qo'shishdir.

Shuningdek, Prezidentning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, masofaviy tibbiy xizmatlarni joriy etish va ona-bola salomatligini ta'minlash masalalari alohida e'tiborga olingan.

Raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha yana bir muhim qaror 2021-yil 17-fevralda qabul qilingan PQ-4996-sonli hujjatdir. Ushbu hujjat sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalariga joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Sun'iy intellektni joriy etish orqali davlat xizmatlari sifati oshadi, biznes jarayonlari tezlashadi va fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlar takomillashadi.

Ilmiy tadqiqotlar ham raqamli transformatsiya jarayonining turli jihatlarini yoritmoqda. X. Muxitdinovning “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnalida chop etilgan maqolasida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayoni, uning asosiy omillari va istiqbollari tahlil qilingan. Muallifning ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyot nafaqat biznes jarayonlarini osonlashtiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, bandlikni kengaytirish va aholining farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

F. Hakimovning “Raqamlashtirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim drayveri” nomli maqolasida esa raqamli texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ta'siri o'rganilgan. Muallif fikricha, davlat tomonidan raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan siyosat O'zbekistonda yangi innovatsion loyihalar va startaplarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli transformatsiyaning mehnat bozoriga ta'siri O. Amanovning “Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida” nomli maqolasida keng yoritilgan. Muallifning ta'kidlashicha, raqamlashtirish jarayoni yangi kasblarning paydo bo'lishiga hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ayrim an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishiga ham olib kelishi mumkinligi qayd etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy sohalariga oid statistik ma'lumotlar chuqur o'rganildi. Xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim, aholiga elektron xizmatlar ko'rsatish va hukumat xizmatlarini avtomatlashtirish sohalaridagi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. 1-jadvalga asoslangan holda, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasining dolzarbligi quyidagi asosiy jihatlar orqali izohlanadi:

1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurati

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda aholining internet tarmog'iga ulanish darajasi atigi 45 foizni tashkil etgan. 2025-yilgacha bu ko'rsatkichni 100 foizga yetkazish, ya'ni har bir fuqaroni yuqori sifatli internet bilan ta'minlash rejalashtirilgan. 2030-yilga kelib esa, bu ko'rsatkichning barqaror tarzda 100 foiz darajasida saqlanishi mo'ljallangan. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi islohotlarni va ularning zaruriyatini yaqqol ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda global miqyosda eng dolzarb va tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy o'sish, balki samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi hukumati “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini ishlab chiqdi va uning asosiy maqsadi sifatida iqtisodiyotni raqamlashtirish, aholiga qulay va tezkor xizmatlar ko'rsatish, shuningdek zamonaviy texnologiyalarni joriy etish belgilab olindi.

1-jadval. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari¹.

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Joriy holati	Yillar kesimidagi maqsadlar		
			2022	2025	2030
Ijtimoiy obyektlarning yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta‘minlanganlik darajasi	foiz	45	100	100	100

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda jahon bo‘ylab jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u ijtimoiy menejmentning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilib, fuqarolar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

2-jadval. O‘zbekistonda internet tarmog‘iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni (2018–2023 yillar)².

2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
7793,7	9022,9	10258,8	12668,6	15651,2	17946,5	20991,8	24017,6	27087,3

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida internet tarmog‘iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni yildan yilga ortib bormoqda. 2015-yilda ushbu ko‘rsatkich 7,793.7 ming abonentni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda izchil o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. 2016–2017-yillarda abonentlar soni mos ravishda 9,022.9 ming va 10,258.8 mingga yetgan.

2018-yildan boshlab bu o‘shish yanada sezilarli tus olgan. Xususan, 2018-yilda mobil internet foydalanuvchilari soni 12,668.6 mingga yetgan bo‘lsa, 2019-yilda bu raqam 15,651.2 mingni tashkil etgan. Keyingi yillarda ham barqaror o‘shish kuzatilgan bo‘lib, 2020-yilda 17,946.5 ming, 2021-yilda esa 20,991.8 ming abonent mobil internet xizmatlaridan foydalangan.

2022-yilga kelib mobil internet abonentlari soni 24,017.6 mingga yetgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 27,087.3 mingga ko‘tarilgan. Ushbu o‘shish tendensiyasi O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar va internet xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, so‘nggi yillarda mobil aloqa infratuzilmasining rivojlanishi, tariflarning arzonlashishi hamda smartfonlardan keng foydalanish jarayonning jadallashishiga sabab bo‘lgan. Shu tariqa, 2015-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda mobil internet foydalanuvchilari soni deyarli 3,5 baravarga oshgan. Bu esa mamlakatning raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni jadallashayotganidan dalolat beradi.

3-jadval. Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni, 100 ta aholiga nisbatan (hududlar kesimida)³.

Klassifikator	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	26,6	30,2	34,5	40,4	48,8	58,4	65,8	75	82,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	28,2	29,2	33,2	41,4	49	56,1	63,7	68,6	75,7
Andijon viloyati	21,5	24,9	28,2	32,6	39,9	47	55,6	61,4	68,3
Buxoro viloyati	23,9	26,4	29,5	36,9	44,8	52,2	61,4	69,4	75
Jizzax viloyati	21,4	23,6	28,3	35	41,6	47,8	55,6	61,4	67,5
Qashqadaryo viloyati	16,4	18,9	22,5	27,6	35,8	43,6	50,3	55,3	60,6
Navoiy viloyati	30	33,4	36,9	45,6	56	64,4	74,4	83,9	88,8
Namangan viloyati	20,3	23,6	28	35,3	43,1	48,6	56,5	62,9	67,2
Samarqand viloyati	21,4	23,9	27,6	32,6	39,2	45,9	53,5	59,1	65
Surxondaryo viloyati	15,6	17,8	22,2	28,4	36,9	43,4	48,9	55,4	59,9
Sirdaryo viloyati	27,1	28,8	35,2	42,4	52,7	59,2	68,5	75,8	82,8

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni, 05.10.2020 yil. Manba: <https://lex.uz/docs/-5030957>

2 Maqola, X.Muxitdinov, “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali, 9-son. Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-raqamli-iqtisodiyotning-shakllanib-borish-jarayonlari/viewer>

3 Maqola, Farrux Hakimov, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo‘lim boshlig‘i “Raqamlashtirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim “drayveri”” O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti. Manba: https://uza.uz/oz/posts/raqamlashtirish-yangi-ozbekiston-taraqqiyotining-muhim-drayveri_365850



Toshkent viloyati	9,9	12,6	12,4	17,6	34,5	42,5	50,9	56,9	64,7
Farg'ona viloyati	21,6	24,9	29,2	34,1	41,8	51,2	74,4	86,7	93,4
Xorazm viloyati	22,6	25,5	32	39	47,1	53,9	62,1	68,4	75
Toshkent shahri	103,5	118,7	129,7	135,1	139,7	174,9	151,5	185,1	209,2


O'zbekiston Respublikasida internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni yildan yilga ortib bormoqda. 2015-yilda har 100 nafar aholiga nisbatan 26,6 ta internet abonent to'g'ri kelgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 82,3 taga yetgan. Bu esa mamlakatda internet xizmatlaridan foydalanish darajasining sezilarli oshganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent shahri eng yuqori ko'rsatkichga ega ekani ko'rinib turibdi. 2015-yilda poytaxtda 100 nafar aholiga 103,5 ta internet abonent to'g'ri kelgan bo'lsa, bu raqam 2023-yilda 209,2 taga yetgan. Bu esa internetdan foydalanish aholining umumiy sonidan ikki baravar ortiq ekanligini anglatadi. Shuningdek, Farg'ona viloyati ham yuqori natijalarga erishib, 2023-yilda 93,4 foizga yetgan. Namangan viloyatida ham internet abonentlari soni jadal oshgan bo'lib, 2015-yildagi 20,3 dan 2023-yilda 83,7 taga yetgan.

Barcha hududlarda internet abonentlari sonining ortishi kuzatilgan bo'lsa-da, ayrim viloyatlarda bu jarayon nisbatan sust kechmoqda. Xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ushbu ko'rsatkich boshqa hududlarga nisbatan pastroq bo'lib, mos ravishda 57,9 va 59,9 ni tashkil etgan. Bu esa ushbu hududlarda internet infratuzilmasining rivojlanishi boshqa viloyatlarga qaraganda sustroq kechayotganini ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, 2015–2023-yillar oralig'ida internet abonentlari sonining keskin ortgani kuzatilmog'da. Bu o'sish mobil aloqa va internet xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini hamda telekommunikatsiya infratuzilmasining kengayayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, internetga ulanish darajasi poytaxt va yirik shaharlar bilan chekka hududlar o'rtasida sezilarli farq qilmoqda. Bu esa mamlakatning raqamli rivojlanishini ta'minlash uchun yanada keng qamrovli strategik yondashuvni talab qiladi.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish ko'rsatkichlari




1-rasm. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish ko'rsatkichlari⁴.

Keltirilgan 1-rasm internet infratuzilmasining rivojlanishini aks ettiradi. 2020-yilda internetga ulanish darajasi 78% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 95% ga yetgan. Bundan tashqari, keng polosali internet portlari ham ortib borgan. 2020-yilda 1,5 million port mavjud bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 2,5 millionga yetgan. Optik-tolali aloqa liniyalarining uzunligi esa 2020-yildagi 10 000 km dan 2022-yilda 20 000 km ga yetgan, bu esa ikki barobarga o'sish demakdir.

4 Maqola, Otabek Amanov, "Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Manba: https://www.researchgate.net/publication/378505994_Iqtisodiyotni_raqamlashtirish_mehnat_bozorida_bandlik_darajasini_oshirish_omili_sifatida



“Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi yoshlarni IT sohasiga jalb qilishda muhim qadam bo‘ldi. 2020-yilda ushbu loyiha doirasida 50 000 kishi ishtirok etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 150 000 ga yetgan. Shuningdek, loyiha davomida sertifikat olganlar soni ham oshib bormoqda. Agar 2020-yilda 10 000 kishi sertifikat olgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 40 000 ga yetgan. Mazkur ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonining izchil olib borilayotganini ko‘rsatmoqda. (2-rasm)



2-rasm. “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi natijalari (2020–2022).

Internet foydalanuvchilari sonining ortishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, IT ta’limning rivojlanishi va raqamli infratuzilmaning kengayishi – bularning barchasi mamlakatning raqamli iqtisodiyotga moslashayotganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda ijtimoiy menejment va raqamli transformatsiya jarayonlari izchil rivojlanayotgan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalishda hali ham qator muammolar mavjud. Quyida asosiy muammolar va ularning yechimlari keltirilgan:

Birinchi muammo – raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani. Ayniqsa, hududlar bo‘yicha internet qamrovi va tezligi o‘rtasidagi tafovut mavjud bo‘lib, qishloq joylarda raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ancha cheklangan. Mazkur muammoni hal etish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish, optik-tolali internet tarmoqlarini kengaytirish va mobil aloqa xizmatlarining sifatini yaxshilash talab etiladi. Ayniqsa, chekka hududlarni qamrab olish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi muammo – aholining raqamli savodxonligi pastligi. Ko‘plab fuqarolar elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda qiynalmoqda, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash ko‘nikmasi yetarli emas. Bu muammoni bartaraf etish uchun aholining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari va kurslarni tashkil etish, elektron xizmatlardan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘mak berish tizimini shakllantirish zarur.

Uchinchi muammo – davlat xizmatlarini raqamlashtirishda to‘liq integratsiyaning yo‘qligi. Hozirda davlat organlari o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi to‘liq avtomatlashtirilmagan bo‘lib, bu esa xizmatlarning sekinligi va noqulayligiga olib kelmoqda. Yechim sifatida – davlat xizmatlarini yagona elektron tizimga integratsiya qilish, idoralararo yagona ma’lumotlar bazasini yaratish va sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish zarur.

To‘rtinchi muammo – kiberxavfsizlik tahdidlari va ma’lumotlar himoyasining zaifligi. Raqamli transformatsiya jarayonining kengayishi bilan birga kiberxavfsizlikka oid tahdidlar ham ortib bormoqda. Shaxsiy ma’lumotlarning himoyasida kamchiliklar mavjud. Bu muammoga yechim sifatida kuchli milliy kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish, davlat va xususiy sektorda axborot xavfsizligi tizimini takomillashtirish va tegishli qonunchilik bazasini mustahkamlash zarur.

Beshinchi muammo – innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani. Xususan, sun’iy intellekt, blokcheyn, “Big Data” kabi ilg‘or texnologiyalar ijtimoiy menejment tizimida keng tatbiq etilmayapti. Yechim sifatida, texnologik innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash hamda davlat-xususiy sheriklik asosida yirik innovatsion loyihalarni amalga oshirish



talab etiladi. Bu esa xarajatlar ko'lamining kengayishiga olib keladi, biroq uzoq muddatli istiqbolda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanmoqda, biroq yuqorida qayd etilgan muammolar uning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish orqali raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy menejment tizimining rivojlanishida yangi imkoniyatlar yuzaga keladi. Kelgusida texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, aholining raqamli savodxonligini oshirish va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish orqali O'zbekiston ijtimoiy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 22-sentabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/3848>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
3. Shavkat Mirziyoyev: Ona va bola sog'lig'iga e'tibor – jamiyatga, kelajakka e'tibor. Prezidentning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasi, 2020-yil 29-dekabr. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/4051>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/-5030957>
6. X. Muxitdinov. "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanib borish jarayonlari." Raqamli iqtisodiyot ilmiy elektron jurnali, 9-son. Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-raqamli-iqtisodiyotning-shakllanib-borish-jarayonlari/viewer>
7. F. Hakimov. "Raqqamlashtirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim drayveri." Taraqqiyot strategiyasi markazi bo'lim boshlig'i maqolasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti. Manba: https://uza.uz/oz/posts/raqamlashtirish-yangi-ozbekiston-taraqqiyotining-muhim-drayveri_365850
8. O. Amanov. "Iqtisodiyotni raqqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida." Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Manba: https://www.researchgate.net/publication/378505994_Iqtisodiyotni_raqamlashtirish_mehnat_bozorida_bandlik_darajasini_oshirish_omili_sifatida



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>